


– Qadrdon gazetam «Tong yulduzi» menga dildoshdek bo‘lib qolgan. Shu sababli, uning har bir sonini intizorlik bilan kutaman, – deydi Sergeli tumanidagi 266-maktabning 8 - «V» sinf o‘quvchisi

Lolaxon ODILJONOVA



2008-yil  
12-may  
N:20  
(66665)

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

# Tong YULDUZI

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan



Toshkent viloyati, Toshkent tumanida joylashgan 23-maktabda 26 yildan buyon mehnat ta‘limidan saboq berib kelayotgan birinchi toifali o‘qituvchi Surayyo opa Mirzahmedova qizlarning eng yaqin sirdoshiga aylanib qolgan.

«Qiz bolaga qirq hunar ham oz» degan naqlni juda ko‘p takrorlaydilar opa, shogirdlariga milliy hunarmandchilik va kashtachilik sirlarini mehr bilan o‘rgatar ekanlar.

Aziz o‘quvchilar! Eng sevimli va eng arzon gazetangizga

## OBUNA

davom etmoqda. Istalgan aloqa bo‘limlarida qadrdon gazetangizga obuna bo‘lishingiz mumkin.

## DUSHANBADAN

### AKA-OPALARINGIZ «OLTIN QALAM» OLISHDI

Poytaxtdagi «Turkiston» saroyida jurnalistika sohasida «Oltin qalam» III Milliy mukofoti uchun Xalqaro tanlovning g‘oliblari taqdirlandi.

Kelajakda Sizlarning orangizdan ham tanlovning g‘oliblari chiqishi aniq. Sizning nomingizdan bu yilgi g‘oliblarni muborakbod etamiz.

### QUTLAYMIZ!

«Tong yulduzi» jamoasi 42-Xalqaro Mendeleev olimpiadasi g‘oliblarini qutlaydi va ular to‘g‘risida turkum maqolalar e‘lon qilib boradi.

### TADBIR

Respublika Olimpiya zaxiralari kollejida 8-may kuni «Xotira va qadrlash – muqaddas tuyg‘u» mavzusida bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi. Bayramga ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, mahalla faollari taklif etildilar. Mehmonlarga bayram dasturxonasi yozildi. Kollej badiiy havaskorlik to‘garagi a‘zolarining musiqiy chiqishlari namoyish etildi.

Muzaffar AHMEDOV

### KITOBXONLAR SONI OSHMOQDA

O‘tgan haftadagi matbuot xabarlariga qaraganda, eng katta kitob do‘koni Londondagi «V.J.Fouli» kompaniyasiga tegishli bo‘lib, savdo rastalarining umumiy uzunligi 48 kilometrga teng ekan. Ko‘rdingizmi, bolalar, kitob hamma joyda ardoqlanadi. Ha aytganday, shu kunlarda bizda ham kitobxonlar soni kundan-kunga ko‘payib borayotgan ekan.

### ENG KO‘P ISMLI QIZ

U Buyuk Britaniyaning Chesterfis shahrida yashaydi. Dastlab Treysi deb atalgan bu qiz hozirda 139 ta ismga ega. G‘aroyib-a! Lekin yagona ismga munosib bo‘lishdan ortiq baxt yo‘q!

2-bet:

GAZETAGA E‘TIBOR – BOLALARGA E‘TIBOR

DUSHANBAGACHA

## Toshkentning 2200 yilligiga



«Qadrli gazeta!»

Salor nima degani? Shu to'g'rida ma'lumot berishingni istayman.»

Erkin, Pskent tumani

Salor atamasi o'g'uzlar xoni Dechixonning oltinchi o'g'li Salor nomi bilan bog'liq. Va shu nomli qabila ham bo'lgan. Ular XIV asrning 60-yillarida Xitoy tomonlarga ko'chib ketishgan.

Salor – Toshkentning Sharq va Janubiy qismidan o'tgan Bo'zsuv nahriining (kanali) Salor GESidan boshlanib, Chirchiq daryosiga qo'shiladi.

DARXON NIMA  
DEGANI?

Ayrim qadimshunoslarning fikrlariga ko'ra, Darxon mo'g'ulcha so'z bo'lib, majburiyatlardan ozod qilingan, demakdir.

## ANHOR NIMA DEGANI?

Anhor (arabcha «nahr» – daryo degan so'zning ko'pligi) – katta ariq demakdir. Toshkent shahrining Chilonzor va Shayxontohur tumanlari hududidan oqib o'tadigan bu suv oqimi Bo'zsuvning o'ng tarmog'i bo'lib, uzunligi 9,1 km.

GAZETAGA E'TIBOR –  
BOLALARGA E'TIBOR

Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi, Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyati va Toshkent shahar xalq ta'limi bo'limi rahbarlari diqqatiga!

2008-yilning yarim yilligi hash-pash deguncha tarixga aylanib bormoqda. Tahririyatda sarhisob degandek, yuqorida nomlari zikr etilgan viloyatlarda o'quvchilarning gazetamiz bilan aloqalari tahlil etildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ne-ne allomalar voyaga yetib, dunyoni hayratga solgan mazkur viloyatlarning vorislari bo'lgan o'quvchilarning gazetamiz bilan aloqalari sust. Avvaliga hayron bo'ldik. Nahotki?

Ammo qaysar raqamlar o'z so'zini aytib turibdi. Gazetamizni Qoraqalpog'istonda – 689, Qashqadaryoda – 2971, Buxoroda – 1638, Navoiyda – 776, Jizzaxda – 2593, Toshkent viloyatida – 1890 va Toshkent shahrida – atigi 1890 ta obunachisi bor ekan, xolos. Hech ishongimiz kelmayapti. Bu viloyatlardagi o'quvchilardan gazetamizga maktublar nega kam kelishining siri oydinlashgandek bo'ldi. Samarqand viloyatida 12 ming o'quvchi gazetamizga obuna bo'lib

turgan bir paytda, qo'shni Buxoro viloyatida bu ko'rsatkich 1638 ta ekanligi ajablanarli hol.

Surxondaryoda 5 ming, Andijonda 5,2 ming, Farg'onada 5,4 ming, Namanganda 5,7 ming o'quvchi gazetaga obuna bo'lib turganda, Sirdaryoda 866, Navoiyda 776 o'quvchining gazetaga obuna ekanligi kishini o'ylantirib qo'yadi.

«Tong yulduzi» – bolalar va o'smirlar gazetasi. Har bir maktab o'quvchisining erkin minbari. Bu minbardan unumli foydalanish kerak. Gazetamiz har bir o'quvchining qo'liga yetib borar, degan umidda eng arzon narxlarda chop etilmoqda. Sahifalarda bir-biridan qiziq xabar va maqolalar, o'quvchilar ijodidan namunalar, respublikamiz hayotiga oid voqealar muntazam yoritib borilmoqda. Yuqorida nomlari zikr etilgan viloyatlarda ham gazetaning, joriy yil ikkinchi yarmi uchun obuna masalasida ijobiy siljishlar amalga oshirilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Kezi kelganda, obuna jarayonida peshqadamlikni qo'ldan bermay kelayotgan Samarqand, Surxondaryo, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlaridagi mutasaddi rahbarlarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

## BUNI BILIB QO'YING!

## ALGORITM

Algoritm — IX asrda yashab o'tgan buyuk vatandoshimiz Muso Xorazmiy nomi bilan bog'liq so'z. Bugungi kunda «Algoritmsh nazariyasi» nomidagi aniq yo'nalish paydo bo'ldi. Dunyo ahli uning nomini hurmat bilan tilga oladi.

## ZAMAKSHARIY

1075-yil Xorazmdagi Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. 56 ta asar yozgan. «Samin al-arabiya» («Arab tili mag'zi»), «Muhotaju an-naviya» («Grammatika hojatlari») kabi asarlari bilan arab tili qonun-qoidalari asoslab bergan. Biz ham shunday ulug' ajdodimiz kabi dunyoga ezgulik baxsh etishga intilamiz.

## AVESTO

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Asli «Ovasto», «Ogohnoma», «Donishnoma» degan ma'nolarni ifodalaydi.

BAHONING  
SIRLARI

Men uchinchi sinfda o'qiyman. Mana, o'qish va yozishni o'rganib oldim. Ota-onam doimo mening uy vazifalarimni nazorat qilishadi. «Maktabda a'lo baholarga o'qigin», – deyishadi.

Dono bobolar «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», – degan gapni ko'p aytishadi. Bu hikmatli so'zga amal qilganlar yaxshi yashashadi.

Hamma o'quvchilar «besh» bahoga o'qishni orzu qilishadi. Doimo «besh» baho olish uchun ko'p o'qish va o'rganish zarur.

Men ham doimo besh bahoga o'qishga va a'lochi, faol o'quvchi bo'lishga intilaman. Ana o'shanda ustozimni ham, ota-onamni ham xursand qilgan bo'laman.

Nigora ABDULLAYEVA, Toshkent viloyati,  
Zangiota tumani, 12-maktabning 3-sinf o'quvchisi

## YANGI ERTAK

Ertaklar yaxshilikka yetaklashini maktabimizdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari yaxshi bilishadi. Buni ular tomonidan tayyorlangan ochiq darsdan ham bilish mumkin.

Ayniqsa, 1-«B» sinf o'quvchilarining ustozlari Tuhfa opa Mirzayeva bilan tayyorlashgan «Bo'g'irsoq» ertagi bizga juda yoqdi. Eshitishimizcha, bu ertakning yangisi chiqibdi. Ijodkor opamiz Muazzam Ibrohimova «Vitaminli bo'g'irsoq» nomi bilan sevimli ertagimizni zamonaviylashtirib yozibdilar.

Gulira'no OBIDOVA,  
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi  
17-maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi

## BEMALOL GAPIRAVERING


Mana, IV chorak ham yakuniga yetib qoldi. Barcha o'quvchilar harakatda. Kimdir chorak baholarini yaxshilamoqda, kimdir esa imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rmoqda. O'quvchilar darsliklardan tashqari, qo'shimcha kitoblardan ham foydalanishyapti. Hatto kutubxonaga ham gavjum bo'lib qolgan. Yil bo'yi kutubxonaga kirmagan o'quvchilar, yil yakunida bu joyga serqatnov bo'lib qolishadi. O'qituvchilar esa darsda ko'p gaplashib o'tiradigan o'quvchilarga imtihon vaqtida «Ana endi bemalol gapiravering», deyishadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, darsda gaplashib o'tirib, o'qituvchiga quloq solmaganlar hammadan ham ko'proq dars tayyorlashyapti.

Zaxro G'OFURJONOVA,  
169-maktabning 8-sinf o'quvchisiQIZIL  
KITOB

Dunyoda hayvon va o'simliklarning turlari ko'p. Lekin, ulardan ba'zilari yo'qolib borayotganini bilasizmi? Shuning uchun, «Qizil kitob»da kamayib qolgan o'simlik va hayvonlarning nomlari yozib qo'yilgan. Qolaversa, ularni saqlab qolish uchun qo'riqxonalar ham tashkil etilgan. Biz bolalar ham, o'simlik va hayvonot dunyosiga befarq bo'lmasligimiz kerak.

Maftuna  
RAHMONBEKOVAGARD YUQMASIN  
UMR GULIGA...

XX asrning eng og'riqli nuqtasiga aylanib ulguragan giyohvandlik illati, afsuski, XXI asrga ham oqib kirmoqda. Oynayi jahon orqali giyohvandlikka qarshi ommaviy tarzda kurash olib borilayotgani fikrimiz dalilidir. Tubi yo'q jarlikka boshlovchi bu yo'ldan yoshlarni qaytarish, albatta har birimizning vazifamizdir. Bugungi kunda ezgu ishlarning boshida turgan, kelajak bizniki, deb baralla ayta oladigan, ularga bildirilayotgan ishonchni to'la-to'kis bajara oladigan yoshlarimiz bu illat haqida qanday fikrdalar? Keling, ularning gaplariga quloq tutaylik:

Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 38-  
umumta'lim maktabining 7-«D» sinf o'quvchisi  
Mohinur OZODOVA chizgan rasm

## Giyohvandlik — yomon illat

## ESIMDAN CHIQMAYDI

– Hanuz esimda, 8-sinfda o'qib yurgan paytimiz, bir sinfdoshim bizga sigaret chekishni taklif qildi. O'rtaga pul tashlab, maktab atrofidagi do'kondan sigaret sotib oldig-u, holiroq joy izladik. Soy bo'yidan «qo'nim» topgach, sigaretni tutatib, chekishni boshladik. Darslar tugab uyga kelgach, boshim og'rib, ko'nglim aynay boshladi. Kiyimlarimdan sigaret hidi anqib turganini sezib qolgan dadam indamay

hovliga chiqib ketdilar. Keyin qo'llarida uzun xivich bilan uyga kirib meni savalay ketdilar. O'sha og'riqlar hali ham esimda. Shu-shu bo'ldi-yu, sigaret degan so'zni eshitsam, mazam qochadigan bo'ldi. Inson salomatligi uchun sigaretning qanchalik zarar ekanligini bilamiz, ammo giyohvand moddalarga o'ylamay ruju qo'yganlarning holi nima kecharkin?

Zokir TO'LABOYEV,  
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani

## KIM AYBDOR?

– Men tibbiyot kollejida o'qiyman. Deyarli har kuni radio, oynayi jahon orqali giyohvandlik ko'chasiga kirib borayotgan yoki shunday qabih ishlarga qo'l urayotgan kishilar haqida gapirishadi. Bunday holatlarning kelib chiqishiga, «Yoshlarning giyohvand moddalar quliga aylanib qolishlariga kim aybdor?» – degan haqli savol tug'iladi. Menimcha, buning sababi ularning bekorchiligi, kattalarning nazoratida bo'lmasliklarida, deb o'ylayman. Ota-onalar har kuni ertalabdan kechga qadar ishda bo'lishadi. Darslardan bo'sh qolgan bola ko'cha bezorilarilariga qo'shilib ketmaydi, deb kim kafolat bera oladi? Bir bolaga yetti mahalla ota-ona, degan naqlga amal qilib, bu illatga qarshi birgalikda kurashsak, yurtimizda giyohvandlar bo'lmaydi, degan umiddaman.

Zarina MELIBOYEVA,  
Toshkent viloyati, Ohangaron shaharchasi,  
Nurobod qishlog'i

## DUGONAMGA RAHMIM KELDI

– Mening bir dugonam bor. Uning akasi yaqindagina uylangan edi. Oradan bir hafta o'tar-o'tmas, kelinoyisi ketib qolibdi. Gap nimadalgini so'rasam, dugonam yig'lab-siqtab akasining giyohvandlikka ruju qo'yganini aytdi. «Uni ko'ra-bila turib, nega uylantirdingizlar?» – degan savolimga, akasining «uylanaman», deb turib olganini aytdi. Men dugonamni biroz yupatgandek bo'ldim, ammo ich-ichimdan ezildim. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, u akasini og'ir ahvolda kasalxonaga olib ketishganini, u keragidan ortiq miqdorda giyohvand modda qabul qilib yuborganini aytdi. Bu gal dugonamni yupatolmadik. Keyinroq eshitsam, akasi kasalxonada o'lamdan o'tibdi. Men ishonqiramay, shosha-pisha ularmikiga yugurdim. Hovlilaridagi tumonat odamni ko'rdim-u, sekin ortimga qaytdim. Shu topda dugonamga, uning ota-onasiga rahmim keldi. Ammo nailoj? Bu yo'ning oxiri shunday fojiali ekan...

Xurshida DADAJONOVA,  
Namangan viloyati, Pop tumani



## NAVOIY BOBOMIZNI O'RGANAMIZ

Barchadin ashrafki, ul inson erur –  
Kim, kamolida xirad hayron erur.

1. Ashraf – oliy, martabali.
2. Xirad – aql, zakovat, donolik.

Hazrat Alisher Navoiy barcha asarlarida insonni komillikka undaydi va uni doimo o'zini anglashga chorlab, bu dunyoda inson oliy mavjudot ekanligini tasvirlaydi. Bu o'rinda «barchadin» so'zi shunga ishora, ashraf – oliy, martabali, ya'ni insonga shunday yuksak martaba berilganini ta'kidlaydi. «Kamolida xirad hayron», ya'nikim donishmand ham bundan lol va hayron. Xulosa o'rnida aytadiki, inson sen shunday mo'tabar ekansan, o'zingni yo'qotma, adashib ketma, shu oliy pog'onada qol. Bil'aks, Hazrat bobomizning hayoti barchamizga ibrat maktabidir. Negaki, ul zotning qoldirgan buyuk merosi biz uchun doimiy saboqdir.

1. Nevaraning sodda, ammo murakkab savoli.
2. Me'morchiligimiz haqida allomalar nimalarni yozishgan?
3. «Oltin kesma» yasashni bilasizmi?
4. Qadimda «g'isht» va «rastvor»ni nima deyishgan?
5. Shu mavzuda yana suhbatlashamizmi?

Toshkentdagi «Ko'kaldosh» madrasasi yonidan o'tayotganimda, bobosining qo'lidan tutgan bolakayning gaplari diqqatimni tortdi.

– Shunaqa binoni Siz ham qurolasizmi? – so'radi u bolalarcha sodda ohangda.

B o b o n i n g peshonasidagi ajinlar chuvalchanglarday chuvalashdi:


– Bunday mangu turuvchi go'zal binolarni qurish uchun katta bilim, mahorat kerak, qo'zichog'im!

Haqiqatan ham shunday.

Shu voqea bahona bir gap esimga tushdi. O'tmish yaqin zamonda, sho'rolar davrida «qadim o'zbek ustachiligi ilmiy asosga ega emas» degan bo'htonni ham eshitganmiz. Shu bois ham, aziz o'quvchim, mazkur maqolada Siz bilan me'morchiligimiz haqida so'z yuritimizki, bu to'g'rida bilib qo'ysangiz, o'zingizga foyda. Keng va chuqur bilimga ega bo'lsangiz, hech qachon hech kimning oldida tilingizni tishlab qolmaysiz.

\*\*\*


Mamlakatimizdagi noyob va nodir obidalar bugun ham jahon ahlini, yurtimizga kelayotgan sayyohlarni hayratga solib kelmoqda. Mazkur obidalarining g'ishtlari har qanday ob-havoga o'ta chidamli, pishiq bo'lsa, ularda ishlatilgan ranglarning o'zgarimas tarkibi hamon «sir»ligicha qolmoqda. Ana shu ikki misolning o'zi ham ajdodlarimizning algebra, geometriya, kimyo



## OBIDALARNING «OLTIN SIRI»

falsafiyatu», Ibn Sinoning «Tib qonunlari», Abu Rayhon Beruniyning «Qonuni Mas'ud», Ulug'bek Mirzo va Jamshid G'iyosiddin Koshiylarning kitoblarida o'z ifodasini topgan va bu amallar ustalarimiz tomonidan mukammal o'zlashtirilib, xalq mulkiga aylantirilganki, ulardan hatto oddiy kishilar ham xabardor bo'lishgan. Masalan, yaqin yillargacha tom suvoqlar faqat kuz oylarida o'tkazilar edi, sababi, shu paytda suvoq me'yorida yaxshi qotgan va qishda, bahorda undan chakka o'tmagan.

Qadimgi ustalarimiz xushbichim, muhtasham binolar qurish uchun maxsus moslama-asbob ixtiro etishganini ham bilib quyishingiz muhimdir. Bu asboblardan birining nomi – «ulgu», ya'ni his-tuyg'u tarozusi, deb atalgan. Albatta, har qanday binoni qurishdan oldin uning chizma loyihasi va shakli, ya'ni nuxxasi tayyorlangan. Masalan, Buxorodagi Arslon minorasi («Minorai Kalon»)ni bunyod etish uchun avvalo usta-



me'morlar o'rtasida tanlov o'tkazilgani tarixdan bizga ma'lum. Minoraning hatto har bir g'ishtini terish uchun matematik hisob-kitob qilinganini ham yaxshi bilamiz. Xullas, qadimda ustalar qurilish maydonchasida reja ipi va qoziqlar yordamida bino shaklini tushirganlar. Bu ikki yordamchi ashyo me'mor qo'lidagi pargar va chizg'ich vazifasini o'tagan. Bino shakllari va mutanosibligini aniqlashda – «dinamik kvadratlar» deb atalgan, o'zaro bog'liq bo'lgan kvadratlar asosida tortiladigan chiziqlar to'ri hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasining asosiy darvozasi, eshik va yo'laklar dinamik kvadratlar chizig'i bilan belgilangan. Juda ko'plab allomalar, xususan, Ibn Sino ham o'zining «Donishnoma» asarida «Oltin kesma» handasaviy nisbati haqida so'z yuritadi. Buning «Oltin kesma» deb yuritilishiga sabab shuki, berilgan kesmani shu nisbatga bo'lsak, dastlabki olingan kesma bilan hosil bo'lgan ikki bo'lakning kattasi qanday nisbatda bo'lsa, ikkita hosil bo'lgan bo'laklar ham o'zaro o'sha nisbatda bo'ladi. Quyidagi chizmalardan ham buni aniqlab olishingiz mumkin.

Samarqand beklaridan biri Shohmurod ibn Doniyol bir yo'la 24 guzarni masjidlari bilan birga tarhini chizib, ta'mir ettirgan. Demak, faqat alohida binolar emas, balki shaharlarning katta qismlari ham maxsus loyihalar asosida bunyod etilganini ko'rish mumkin. «Zafarnoma» kitobida Amir Temur bobongiz qurdirgan Jome' masjidi tasvir etilgan miniatyurada me'mor bino nuxxasini kuzatib turganligi aks ettirilgan. Ko'rinib turibdiki, har bir ish me'mor va ustalarimiz tomonidan puxta loyihalashtirilib, so'ngra amalda tadbir etilgan. Alisher Navoiy bobongiz o'z asarlarida bino uchun zarur «masalliq» bo'lgan «g'isht»ni qadimgi o'zbek so'zi «kirpich», qorishma (rastvor)ni «balchiq» deyilganini aytib o'tgan. Xullas, Siz bugun yana anchagina ma'lumotlardan xabardor bo'ldingiz. Fikrlaringizni yozib yuboring, bu to'g'rida yana to'xtalamiz.

To'liqin HAYIT



SHUHRAT  
(1918-1993)

O'zbekiston xalq yozuvchisi, iqtidorli shoir, taniqli noshir Shuhratning bolalarga bag'ishlangan bir qator poema hamda balladalar o'zining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.



Ollobergan PO'LATOV  
(1935-yilda tug'ilgan)

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Ollobergan Po'latov bolalar ruhiyatini yaxshi bilgani holda ularni she'rga sola oladi ham.



Sulton JABBOR  
(1940-yilda tug'ilgan)

Taniqli bolalar shoiri Sulton Jabbor 1957-yilda dastlabki she'rlari bilan vaqtli matbuotda qatnasha boshlagan.



Tursunboy ADASHBOYEV  
(1939-yilda tug'ilgan)

Taniqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev o'zbek va qirg'iz tillarida ijod qiladi. «Kamolning olmasi» deb nomlangan birinchi kitobi 1966-yilda nashr etilgan.



Yo'ldosh SULAYMON  
(1935 - 2004)

Taniqli shoir va yozuvchi Yo'ldosh Sulaymon «Biz sayohatchilarmiz», «Hamma havas qiladi», «Rahima-chi, vahimachi» kabi o'nlab kitoblarni muallifidir.



Yoqub XO'JAYEV  
(1935-yilda tug'ilgan)

O'tgan asrning 60-yillarida «Mittivoyning sarguzashtlari» nomli ilk she'rlar to'plami nashr etilgan.



Safar BARNOYEV  
(1938-2001)

Bolalarning sevimli shoiri va yozuvchisi Safar Barnoyevning birinchi she'ri hozirgi «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan.



Miraziz A'ZAM  
(1936-yilda tug'ilgan)

1960-yildan to hanuzgacha bolalar uchun ijod qilib keladi.

## OZ-OZ O'RGANIB, DONO BO'LUR

Muhtaram o'quvchim!  
Bugun Sen bilan yana til  
haqida gaplashamiz. Ona-  
ni qanchalik hurmat  
qilsang, tilga ham shun-  
chalik e'tibor zarur. O'z  
tilingni buzib gapir-  
sang, o'zgalarga, al-  
batta, kulgi bo'lasan.

O'zbek tili nihoyatda boy  
til.

Adabiyotimizning  
ustunlaridan biri bo'lmish  
Abdulla Qahhor shunday  
yozgan edi:



«Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib  
bo'lmaydigan fikr, tuyg'u, holat yo'q!»

\* \* \*

«Chiroyli tilimiz bor». Haqiqatan shunday.

Alisher Navoiy bobongizning istagan bir g'azalini  
o'qing: shirin til, pokiza ruh, teran fikr, shoh satrlar Sizni  
go'zallik va latofat bog'lariga, toza, mayin, sarrin  
shamollar esib turgan tog'lar qo'yniga yoki chin  
insoniylik hikmatlariga oshno etadi.

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,  
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Ko'ngilga moyday yoqadigan satrlar. Qanchalik  
shirali, tiniq ohanglar. Bu Sizning, bizning ona o'zbek  
tilimizda jaranglamoqda. Bu til bilan faqat faxrlanishimiz  
mumkin.

\* \* \*

Yoki Alisher Navoiy bobongiz yozgan quyidagi  
to'rtlikka e'tibor bering.

Shohu toju xil'atikim, men tomosha qilg'ali  
O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas.  
Halol ona sutidekdur gar o'zbekim tutsa,  
Tabuq qilib, yukumub tustig'on ichinda qimiz.

O'sha paytlarda ham o'zbekning bosh kiyimi,  
egnidagi shohi to'ni, tabuq (kosa)da sut tutishi, ya'ni  
mehmondo'stligi maqtovg'a sazovor bo'lgan. Va  
qolaversa, uning bu sifatleri o'z tilida go'zal va betakror  
satrlarga ko'chgan.

\* \* \*

«O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» kabi  
mashhur asarlarning muallifi, benazir adib Abdulla  
Qodiriy: «Bu uydan hech kim norozi bo'lib chiqib  
ketmasligi kerak», degan o'xshash fikrni aytgan. Bu uy  
kimmiki? O'zbekniki? Siz bilan bizniki emasmi? Shu gap  
bizning nazokatli tilda yangragan va bu so'z qayta-qayta  
jaranglab turibdi.

\* \* \*

Tilimiz shunchalik nazokatli va latofatliki, undagi bu  
xususiyatlar boshqa tillarda deyarli uchramaydi.  
Masalan, o'zligini saqlagan o'zbek oilalarida er o'z ayolini  
hech qachon nomi bilan emas, balki bosh farzandining  
yoki boshqa biror arziri nom bilan chaqiradi.

\* \* \*

«Mehr-muruvvat», «saxovat», «savob» so'zlarimiz-  
ning boshqa tillarda tarjimai yo'q.


\* \* \*

«Chaqaloqlarni yig'latmangiz, bolalarga ozor  
bermangiz – bu gunohi azim erur».

Amir TEMUR

«Ilm olmoqqa intilish har bir musulim va muslima uchun  
qarzu farzdur».

(Buxorodagi Mirzo Ulug'bek qurdirgan  
madrasada bitilgan hikmat).



## KIM BO'LSAM EKAN?

Bu savol mustaqil hayot bo'sag'asida turgan har bir  
yigit-qizni o'ylantirishi, hayot otlig' sir-u sinoatli  
olamning ming bir ko'chalarida sar-sari kezdirishi  
tayin.

Qani, quloq tutaylik-chi, poytaxtdagi 314-  
maktabning 9-sinf o'quvchilari bu xususda qanday  
fikrda ekanlar:

Nargiza HAMIDOVA, 9-«B» sinf o'quvchisi:

### MENING NURAFSHON KELAJAGIM...

Maqolamni shunday nomlashga nomladimu, uni  
qanday davom ettirishni bilolmay, uzoq o'ylanib qoldim.  
Qanday kasb egasi bo'lsam, kelajagim nurafshon  
bo'ladi? Bu juda jiddiy savol-da, axir! Shuning uchun  
ham fikrlarimni jamlolmayapman...

Kechagina qo'g'irchog'ini quchoqlab yurgan  
o'yinqaroq qizaloq edim. Beg'ubor, murg'ak qalbim,  
mitti shuurim, ongim bilan dunyoning siru-sinoatlarini  
to'liq anglab yetmasimdan, «prokuror» bo'laman deb  
yurardim. O'zim kichik bo'lsam-da, orzularim osmon  
qadar ulkan edi. Bugun ancha ulg'aydim, mustaqil  
hayotga qadam qo'yish arafasidaman. Orzuim esa  
o'zgargani yo'q, faqat yanada qat'iylashdi, aniq  
maqsadga aylandi. Kelajakda niyatimning amalga  
oshishiga ishonaman. Chunki buning uchun barcha  
sharoitlar, imkoniyatlar mavjud.

Men dunyoda shunchaki yashab o'tmay, insonlarga  
nafi tegadigan, kimgadir qilich, kimgadir qalqon  
vazifasini o'taydigan qonun himoyachisi bo'lishni  
istayman.

### SO'NGGI QO'NG'IROQ

Yillar o'tdi yugurib-shoshib,  
Qalbizda hayajon toshib,  
Endi biz ham katta yo'ldamiz  
Ketajakmiz dovonlar oshib.  
Ey maktabim, ikkinchi uyim,  
«Xayr» deyish qanchalar qiyin!  
Ustoz turar bunda o'ksinib,  
Boshimizga tutib ko'ksini.  
Xayr endi, maktab yo'llarim,  
O'yinqaroq, shodon yillarim.  
Katta hayot bizni chorlaydi  
Orzu quyosh misol porlaydi.  
Bu so'nggi dars, so'nggi tanaffus,  
Ayriliqdan dillarda afsus.  
Yaraklarda qandaydir titroq,  
Jaranglaydi so'nggi qo'ng'iroq!  
O, bu damlar kelmaydi qaytib,  
Sho'xliklarni yurgaymiz aytib.  
Xayr endi, maktab-jonajon,  
Bizga oq yo'l tilang, onajon!



Muyassar RAHMONOVA,  
Samarqand viloyati,  
Ishtixon tumanidagi  
24-maktabning  
10-sinf o'quvchisi

Latofat EGAMBERDIYEVA,  
9-«A» sinf o'quvchisi:

### «ALIFBE»NI O'RGATSAM...

Maktabga ilk bor qadam qo'ygan kunim, hecham yodimdan chiqmaydi: hadik  
va hayajonda oyimning qo'llarini mahkam ushlab olganman, sinfga sira kirgim  
yo'q. Shu tobda birinchi o'qituvchim yonimga kelib, mehr bilan sochlarimni  
siladi. Uning nur yog'ilib turgan chehrasiga boqib, ko'nglim ancha taskin  
topgandi. Keyinchalik ustozimga shu darajada bog'lanib qoldimki, bayram  
va dam olish kunlarining kamroq bo'lishini istaydigan bo'lib qoldim.

O'shanda, «Alifbe»ni o'qitadigan ustoz bo'laman, deb yurardim. «Kim  
bo'lsam ekan?» degan savol oldimda ko'ndalang turgan ayni damda o'ylab  
qarasam, o'qituvchilikdan-da sharafliroq kasb yo'q ekan dunyoda. Ayniqsa,  
ilk bor qo'limizga qalam tutqazib, harf tanitgan ustozlarning nomlari bir  
umrga muhrlanib qolarkan kishi qalbida.

Ziyoda ERGASHEVA, 9-«A» sinf o'quvchisi:

### DUNYO BILAN TILLASHSAM...

«Bir tilni biladigan odam bir kishi, ikki tilni biladigan  
odam ikki kishi», deb bejiz aytilmagan. Inson qancha  
ko'p tilni bilsa, bilimi shuncha boy, dunyoqarashi keng  
bo'ladi.

Diyorimiz kundan-kunga chiroy ochib,  
ko'rkamlashib boryapti. Buni xorijlik sayyohlar  
ko'zidagi, yuzidagi havas, hayrat alomatlaridan ham  
bilsa bo'ladi. Ularga hamrohlik qilib, yurtimiz haqida  
to'lib-toshib so'zlayotgan tilmochlarga juda havasim  
keladi. Qaniydi, chet tillarini mukammal o'rganib,  
sayyohlarga yurtimizda biz yoshlar uchun  
yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta'lim sohasida amalga  
oshirilayotgan islohotlar haqida faxr va iftixor bilan  
so'zlab bersam. Chet ellarga borib, bilim va  
salohiyatimni «ko'z-ko'z» lasam...

Toshkent shahar hokimligi jamoat tashkilotlari bilan  
birgalikda umumta'lim maktablarining 9-sinf  
bitiruvchilari, hamda ularning ota-onalari davrasida  
akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda o'qishning  
afzalliklari, u yerlardagi shart-sharoitlar,  
qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik  
texnologiyalar to'g'risida suhbatlar olib  
borilyapti.



Muxlisa HASANOVA, 9-«B» sinf o'quvchisi:

### KASBLARNING ENG A'LOSI

«Kasblar ichida eng a'losi, xayrlisi qaysi?»,  
desalar, hech ikkilanmay, shifokorlik kasbi degan  
bo'lardim. Bu yorug' dunyoga ilk bor kelgan  
kunimizdanoq bizni mehr bilan qarshi oladigan, eng  
bebaho boyligimiz bo'lmish salomatligimizga  
posbonlik qiladigan shifokorlik kasbiga mehrim juda  
baland. Uni moviy osmon bag'ridagi ezgulik  
yog'dusiga qiyoslagim keladi. Axir shifokorlar ham  
xasta insonlar qalbiga nur olib kiradilar-da. Shuning  
uchun ham bu kasb egalariga hurmatim baland.

– Hademay maktab ostonasidan qaldirg'ochlar  
kabi uchirma bo'lamiz. Ko'plab tengdoshlarimni  
qanday kasbni tanlash haqida bosh qotirishyapti. Men  
esa allaqachon shifokorlik kasbini tanlab qo'ydim.  
Bemor insonlarni dori-darmonlar bilangina emas,  
shirin zabonim, xush muomalam bilan ham davolash  
niyatidaman.

Qadrli bitiruvchilar, orzulari osmon qadar yigit-qizlar!  
Sizlar uchun o'ta hayajonli, mas'uliyatli bo'lgan ayni damlarda  
barchangizga kattadan-katta omadlar tilab qolamiz!



# ENG KO'P MEDAL KIMNIKI?



sharafini himoya qilishganini bilasiz. Ulardan Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi akademik litsey o'quvchilari Anvarxo'ja Maqsudxo'jayev

oltin, Ravshan Mirzayev kumush medalga sazovor bo'lishdi. G'olibning g'alabasi haqida o'zidan eshitasak:

– Bizning bu yutug'imiz «Yoshlar yili» da yurtimiz yoshlariga juda katta e'tibor berilayotgani va biz tengdoshlarim bilan davlatimizning bu ishonch, qo'llab-quvvatlashlariga munosib javob qaytara olayotganimizdan dalolat beradi. Bu

olimpiada menga yurt sharafini himoya qila olish baxtini nasib etdi. Va erishgan yutug'im yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Ya'ni, barcha medal sohiblari endilikda Moskva davlat universiteti hamda ishtirokchi mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlariga imtihonsiz kirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, zahira jamoa a'zolari musobaqaning 3 ta bronza medali va 2 diplomiga ega bo'lishdi. Shunday qilib, vakillarimiz jamoalar orasida eng ko'p – 13 ta medalni qo'lga kiritishdi. Umumjamoa hisobida ukrainalik o'quvchilar ikkinchi, rossiyalik tengdoshlarimiz uchinchi o'rinni egallashdi.

Havasimni keltirdingiz, deysizmi? Shunday nufuzli musobaqa ishtirokchilariga havas qilmay bo'ladimi?!

Zero, olimpiadada hech bir ishtirokchi e'tiborsiz qolmadi. Yosh kimyogarlardan 9 nafari oltin, 15 ishtirokchi kumush, 28 nafari bronza medallari bilan yurtlariga qaytdilar. 29 o'quvchiga esa maxsus diplom nasib etdi.

Olimpiadaning tantanali yopilish marosimida so'zga chiqqan Moskva davlat universiteti dekani, akademik V.V. Lunin ushbu xalqaro musobaqaga yurtimizda katta tayyorgarlik ko'rilganligi, umuman, bu yurtda yosh avlodga e'tibor muhim masalalardan biri sifatida qaralayotgani bugun o'z natijasini ko'rsatganini ta'kidladi.

Demak, sizni yana bir bora yurtga munosib bo'lmoqlikka chorlaymiz! O'qing, yurt bag'rida o'sib-uning! Orangizda Anvarxo'ja, Ravshan, Bekzod-u Mehriddinlardek tengdoshlaringiz ko'payaversin! G'olib do'stlaringiz haqida esa gazetaning keyingi sonlarida o'qib boring. Zero, ular sizga g'alabaga erishish sirlarini ochishsa, ne ajab!

Sayyora JO'RAYEVA  
«Tong yulduzi»  
muxbiri

Yurtimning iqtidorli, iste'dodli yoshlari barchangizni bugun tabriklagim, shu zaminda ulg'ayayotganingiz-u shunday tengdoshlaringiz bor ekanliklari bilan qutlagim keladi. Nima uchun deysizmi? Buning juda katta va quvonarli sababi bor, albatta. Zero, biz aytganimizday, 13-14 yoshda xalqaro musobaqada ishtirok etib yurtga munosib farzand bo'lish mumkinligini sizning tengdoshlarinigiz – O'zbekiston yoshlari isbotlab berishdi. Ular 42-Xalqaro Mendeleev olimpiadasida umumjamoa hisobida 1-o'rinni egallashdi. Mamlakatimiz vakillari bir oltin, bir kumush-u sakkizta bronza medalini qo'lga kiritishganiga ishonasizmi? Olimpiadada 10 nafar ishtirokchi va 5 nafar zahira jamoa a'zolari yurtimiz



## MUSTAQIL ISHLASH IMKONI

Masofali ta'lim – o'quvchilarga o'rganilayotgan materialning asosiy hajmini qulay ko'rinishda yetkazib berishni, o'quv jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilarning interaktiv o'zaro aloqalarini, materialni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishlash imkonini beruvchi hamda o'qish jarayonida ularning olgan bilimlarini baholashni ta'minlovchi axborot texnologiyalari to'plamidir.

Masofali ta'limning bir qancha modellari ishlab chiqilgan: birlamchi, ikkilamchi, aralash modeli, konsosium modeli, franchayzing modeli, validasiya modeli, uzoqlashgan auditoriyalar hamda loyihalar modellari. Bu modellardan o'quv yurtining shart-sharoitiga, davlatning geografik joylashuviga, mamlakatda axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasiga, maxsus mutaxassislarining mavjudligiga va mamlakatning ta'lim sohasidagi standartlariga ko'ra foydalaniladi.

Masofadan ta'lim berishda uning mukammal ishlab chiqilgan tizimi bo'lishi shart. Bu tizimda asosan masofali ta'limning barcha tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, texnikaviy va uslubiy muammolari yechiladi. Shu o'rinda aytish joizki, masofali ta'limda talabaning o'sishi, imtihon topshirish jarayonlarini nazorat qilishda mukammal ishlab chiqilgan texnologiyalarga asoslanish kerak.

Shahzod RIZAYEV

Istiqlol yillarida ta'lim sohasida ham katta yutuqlarga erishildi. Hozirda bu sohada axborot texnologiyalari hamda internetdan keng foydalanib, tinglovchilarga o'quv materialini oson, tushunarli yetkazib berilmoqda.

## MITTI DARCHA

Janubiy afrikalik siyosiy arbob Yan Xristian Smete 5000 ta kitobning matnini yoddan bilgan. Birmalik Visit tabm Vumsa 1974-yilda 6000 sahifalik budda matnlarini yoddan aytib bergan.

\* \* \*

Xitoylik Gu Yanlin 26 yoshida Xarbin shahridagi 15 mingta telefon raqamini yoddan aytib berib, ko'pchilikni hayratda qoldirgan.

\* \* \*

Angliyalik Dominik O'Brayen 1994-yilda o'tkazilgan xotirani sinash chempionatida 15 daqiqada 152 ta xitoycha so'zni eslab qolib, g'olib bo'lgan.

\* \* \*

Amerikalik Barbara Mur 1852 ta qo'shiqni pianinoda yoddan ijro etgan.

\* \* \*

«BBC News»ning xabar berishicha, Shvetsiyada yoshi eng ulug' daraxt topildi. 10 ming yil umr kechirgan, deb hisoblanayotgan archaning yoshi Floridadagi laboratoriyalardan birida radiouglerod tahlili orqali aniqlangan.

## Tengdoshlarning ijodi



## YURTIM JAMOLI

Vatan misoli onam  
Asrar meni bag'rida.  
Unga mehrim saqlayman,  
Yuragimning qa'rida.

Qadrton bunda bari  
Hatto bir giyohi ham.  
Odamlari baxtiyor,  
Ko'nglini chulg'amaydi g'am.

To'rt faslini birma-bir  
Ta'riflasak, yetmas so'z.  
Ko'klam chog'i husniga  
Qarab to'yolmaydi ko'z.

Keling, mehmon bo'lgani,  
Quchoq ochib kutamiz.  
Palov damlab o'zbekcha,  
Borimizni tutamiz.

Shahzodbek Karimov hozirgi vaqtda Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 34-maktabning 5- "A" sinfida a'lo baholarda o'qimoqda.

Uning murg'ak qalbida tug'ilgan she'riyatga bo'lgan sodda havas keyinchalik sayqallanib bordi. Hozir u yaxshigina she'rlar yozish bilan birga ajoyib rasmlar ham chizadi. Quyida Shahzodbekning ikki ijodiy mashqlaridan ham namunalar berayapmiz. Nazarimizda, iqtidorli tengdoshingizning ijodi sizni befarq qoldirmaydi.



## TUSH

Usto, bir tush ko'ribman,  
Tunda oyga uchibman.  
Oydan so'ng Quyoshbobo  
Quchog'iga tushibman.  
Bilasizmi, ustozjon,  
Quyoshbobo she'r aytdi.  
She'ridan sizga shodon  
Keltiray kichik baytni.  
Men emishman go'zal qiz,  
Bu keng olamda tengsiz.  
Ko'kni sayr etib yurdim,  
Oyim chaqirdi, turdim.

Gulbodom SULTONOVA,  
Namangan viloyati

## QUYOSH

Erta tong quyosh chiqar,  
Tog' ortidan mo'ralab.  
Bizlarga kulib boqar,  
Nurlari dilga yoqar.

Diyora JO'RAYEVA,  
260-maktabning  
4-sinf o'quvchisi

## KEL DUGONAM

Kel dugonam, o'rtoqjon,  
Shirin suhbat quraylik.  
Yurtimiz quchogida,  
Quv nab, yayrab yuraylik.



Dildora ABDUVOITOVA,  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi  
324-maktabning 3-sinf o'quvchisi

## Shoirilar bolalarga




Anvar OBIDJON

## BIRINCHI MAQTOV

– Ko'rinmaysan, Mamajon?  
– O'qiyapman, ammajon.  
– O'qishlaring durustdir?  
– «Balli» dedi direktor.  
– Nega «balli» dedi u?  
– Shoshib kelar edi u,  
Men darrov yo'l bo'shatib,  
Salom berdim o'xshatib!

## TUSHIMDA

Sakkiz ko'zli alvasti  
Men bilan xo'p gaplashdi.  
Bitta ko'zin qildi lo'q,  
Ikkinchisi o'ynar sho'x,  
Uchinchisi suzdi sal,  
To'rtinchisi qisdi sal,  
Beshinchisi yiltirar,  
Oltinchisi mo'ltirar,  
Yettinchisi yig'lardi,  
Oxirgisi uxlardi...

«MO'YNA» DEB  
TERIMNI  
SHILMANGIZ

Uxlayman o'ralib dumimga,  
«Shukur» deb o'tgan har kunimga.  
Inim shu kovakda, ko'p issiq,  
Daraxt ham baquvvat, tik-o'siq.

Shox-shabba sovuqdan qarsillar,  
Bor jonzod «qish o'tsin» deb turar.  
Deydilar: «Soz bo'lar bahorda,  
Hozircha chidasak shu qorda.»

Ochiqsam, inda bor ko'p yong'oq,  
Balki bu qish bo'lar uzunroq.  
Shu sabab chaqaman oz-ozdan,  
Iqtisod qilay men hozirdan.

Ayiq ham uyg'onar bahorda,  
Eshitdim xurragin nahorda.  
Qo'rqinchli bo'lmas u qish kuni,  
U karaxt o'tkazar ko'p tunni.

Voy, uyqum o'chmasin mening ham,  
Chaqdim-ku yong'oqdan yo'qdir g'am.  
Ov qilib bezovta qilmangiz,  
«Mo'yna» deb terimni shilmangiz!

Bahrom TOJIYEV

## Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

Shunga qaramay, Garri Potter hanuzgacha shu yerda yashardi va hozir uyg'onishiga ozgina qolgan bo'lsa-da, hali qattiq uyquda edi. Petunya xolasi uyg'ongan va uning eshigi yoniga kelgandi, zum o'tmay ertalabki sukunatni uning chinqiriqli o'tkir ovozi kesdi:

– Qani, uyg'on! Tur!


Garri cho'chib ketdi va uyg'ondi. Xolasi eshikni tinimsiz daranglatardi.

– Tez bo'! – chinqirdi u.

Garri uning uzoqlashayotgan qadamlarini eshitdi, keyin esa plitaga taraqlab tushgan tova tovushi eshitildi. U orqasiga o'girilib yotdi va tushida nimalarni ko'rayotganini xotirlashga urindi. Bu yaxshi tush edi. Tushida u mopedda havo bo'ylab uchib borardi. Unda bu tushni qachonlardir ko'rgandek g'alati hissiyot bor edi.

Xolasi yana eshik yoniga qaytdi.

– Nima, haliyam turmadingmi?



## Bizning tarjima

– Deyarli, – sirg'alib javob berdi Garri.

– Tezroq qimirla, bekonga qarab turishingni xohlayman. Qarab tur, tag'in kuyib ketmasin, – bugun Dadlining tug'ilgan kuni, hammasi risoladagiday

bo'lishi kerak.

Garri unga javoban ingrab yubordi.

– Nimalar deyapsan? – xolasi eshik ortidan do'q qildi.

– Yo'q, hech nima. Hech nima...

Dadlining tug'ilgan kuni – buni qanday unutgan bo'lishi mumkin? Garri o'rmdan sekingina turdi va paypog'ini izlab alangladi. Uni karavoti ostidan topdi va oyoqlariga kiyayotib, o'rmalayotgan o'rgimchakni qoqib tashladi. Garri o'rgimchaklarga ko'nikib ketgandi – ular zinapoya tagidagi qaznoqda anchagina bo'lib, uning joyi ham aynan o'sha qaznoqda edi.


U kiyinib olgach, oshxonaga bordi. Butun stol Dadli uchun hozirlangan sovg'alarga liq to'lgandi. Aftidan, Dadliga uning o'zi orzu qilgan yangi kompyuter, yana bitta televizor va poygachi velosiped sovg'a qilishgandi. Bu boshqa barcha


narsalarni aytmasa ham bo'lardi. Xolavachchasi nima uchun poygachi velosipedni xohlagani Garriga jumboqligicha qoldi, axir u juda baqaloq bo'lib, garchi bironasini kaltaklashdan sira qaytmasa ham, jismoniy mashqlarni yomon ko'rardi. Dadlining sevimli «yostig'i» Garri edi, lekin u har doim ham xolavachchasini quvlab yeta olmasdi. Garrining tez yugura olishiga ishonish ancha qiyin edi.

Ehtimol, aynan qorong'i qaznoqdagi hayot Garrining o'z tengdoshlariga nisbatan pachoqroq va nimjonroq bo'lishiga olib kelgandi. Buning ustiga, uning kichik va ozg'inroq ko'rinishining sababi shuki, u Dadlidan qolgan eski kiyimlarni kiyishiga to'g'ri kelardi, shu bois Garrining egnidagi libosi qop kabi osilib yotardi. Garrining yuzi ozg'in, tizzalari o'tkir va ko'zlari yorqin yashil rangda edi. U skotch bilan yelimgan dumaloq ko'zoynak taqardi va faqat shuning evaziga u sochilib ketmasdi – Dadli Garrining burniga urganida ko'zoynakni sindirgandi.

Gulchehra SA'DULLAYEVA  
tarjimasi

Davomi bor.





## NUKUSDAGI BUNYODKORLIK ISHLARI



Toshkent viloyati, Parkent tumanida joylashgan «Quyosh» ilmiy ishlab chiqarish markazida shodiyona shukuhi. Sabab, sanoqli kunlardan so'ng, uch bosqichli sport musobaqalarining o'rta bo'g'ini bo'lgan «Barkamol avlod – 2008» sport musobaqasiga mash'ala alangalantiriladi. Mutaxassislarning aytishicha, mash'ala 2600 gradusli quyosh o'chog'ida yondiriladi.

Bir necha kunlardan so'ng, Nukus shahrida o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida «Barkamol avlod – 2008» sport musobaqalari start oladi.

Nukusdagi barcha sport majmualari va stadionlar yirik anjumanga taxt. Shahardagi «Turon» stadioni yoshlik va go'zallikni tarannum etuvchi sport musobaqasi ishtirokchilarini kutib olishga shay turibdi. «Turon» o'z bag'riga 12 ming tomoshabinni joylab, musobaqaning ochilish va yopilish tantalariga guvoh bo'ladi.

Bellashuvlarda Qoraqolpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar terma jamoalari sportning o'n ikki turi bo'yicha bellashadilar. Ishtirokchilar basketbol, voleybol, kurash, futbol, yengil atletika, tennis, stol tennis, suzish, shaxmat, qo'l to'pi va badiiy gimnastika turlari bo'yicha g'oliblikda kuch sinashadi.

Musobaqada 1596 nafar talaba aka-opalaringiz qatnashadi. Ularga 210 nafar murabbiylar bosh bo'lishadi. 126 nafar hakamlar g'oliblar sonini aniqlab boradi.

Sport bellashuvlari Nukus davlat universiteti, Nukus sport kolleji, Bolalar va o'smirlar sport maktabi, Qurilish kommunal xo'jaligi kasb-hunar kolleji, 2-son akademik litseyida, Melioratsiya va suv xo'jaligi kasb-hunar kollejida, hamda Xo'jayli tumanidagi Markaziy o'yingohlarda o'tkaziladi.

Bolalar, uyda keksa buvi-yu buvajonlaringiz ezgulik haqida sizga ertak aytib berganlarida, bunyodkorlik, obodonlashtirish va go'zallik to'g'risida maroq bilan gapiradilar. Yo'lingiz Orolbo'yi tomonlarga tushgudek bo'lsa, u yerdagi sport musobaqalari yilida ekilgan minglab ko'chatlar, gullarni ko'rib, beixtiyor ertaklar mamlakatiga borib qolgandek bo'lasiz. Orolbo'yida o'tkaziladigan sport musobaqalari bayrami bahonasida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari tarix sahifalarida yorqin iz qoldiradi.

### ESLAYSIZMI?

«Barkamol avlod»ning Respublika bosqichi ilk bor 2001-yili Jizzaxda, 2003-yili Andijonda, 2005-yilda Toshkent viloyatlarida tashkil etilgan edi.

## IZDOSHLAR

Yaqinda Yurtboshimiz Islom Karimov «Respublika Olimpiya xaziralari tennis maktabini tashkil etish to'g'risida» qarorga imzo chekdi.

Vatanimiz iste'dodlarga boy diyor. Bugun ming-minglab o'g'il-qizlarimiz sportning tennis turi bo'yicha shug'ullanishmoqda.

Viloyatlarimizda respublika turnirlari, bolalar o'rtasidagi xalqaro musobaqalarning o'tkazilishi an'ana tusini olgan. Bu bellashuvlarda o'zlarini ko'rsatgan iste'dod sohiblari xorij kortlarida ham mardona raketka o'ynatishyapti.

Bugun Iroda va Oqgulning izdoshi 14 yoshli Nigina Abduraimova, Sabina Sharipova, Diyora Saidmuhamedova kabi iste'dodlar qator xalqaro turnirlarda zafar qechmoqdalar.

Endi bu kabi sportsevar o'g'il-qizlar o'z bilimlarini Respublika Olimpiya zahiralari hamda sport maktablarida boyitish imkoniga ega bo'ldilar. Ular ko'zlagan maqsadlariga erishib, yurtimiz sha'nini yuksaltirishlariga ishonamiz.

Ma'mura MADRAHIMOVA



### «Olimp sari yo'l» tanloviga

## BOYLIKNI SAQLASH KICHIK ISHLARDAN BOSHLANADI



Biz mehnatdan qochmaymiz

Biz Sayram ko'lidan o'tib tog'ning eng baland cho'qqisiga ko'tarilganimizda fushunkor tabiat o'zining bebaho boyliklarini ko'z-ko'z qilardi. Tog'lar orasidagi yam-yashil archa daraxtlarining bir tekisda savlat to'kib turishi hayratimizni yanada oshirdi. Betakror bu manzarani zavqlanib tomosha qilar ekanmiz, nogohon inson qo'li bilan bunyod bo'lganmi, degan xayolga bordik. Tabiatning maftunkor va albatta sirli mo'jizasi oldida inson har qachon lol qolgan. Kunning iliq bo'lishiga qaramasdan tog'lar bag'ridagi qor uyumlari beixtiyor rassomning chizgilarini eslatardi. Oqlik va yam-yashillik uyg'unlashib, tabiatga yanada go'zallik baxsh etganini ko'rdik.

### «YAXSHIMISIZ, MUALLIM?!»



Sovg'a olish juda yaxshi-da

Boylikni saqlash kichik ishlardan boshlanadi. Xitoylik tengdoshlaringizning shiori shunday. Bu borada boylik keng ma'noda qo'llanilgan. Maktab mulkini saqlash, o'z sog'lig'ini asrash, ozoda yurish, uyni saranjom tutish, yo'llarda piyodalar qoidasiga rioya etish, chiroqlarni bekorga isrof qilmaslik, suvni oqizib qo'ymaslik, ota-onani hurmat qilish, ustozlarni qadrlash kabi masalalar o'quvchilarga tez-tez eslatib turiladi.

Uyg'ur va xitoy tillariga ixtisoslashgan 20-boshlang'ich maktabga borganimizda, o'quvchilar bayram tadbiriga tayyorgarlik ko'rishayotgan ekan. Eshik oldida har bir o'quvchini maktab direktori Akbar Ili kutib olyapti. Bolalar «Yaxshimisiz, muallim?!», – deya salomlashib o'tishyapti. Ular o'z sinflari uchun ajratilgan joyda saf tortishga oshiqardilar. Nixoyat xitoy va uyg'ur tillarida o'quvchilar so'z oldilar. Ular so'zini maktab va o'quvchining qonun qoidalaridan boshlashdi. Tengdoshlarini o'z yurtiga munosib inson bo'lishga chaqirishdi. Bunday chaqiriqlar maktabda har dushanba an'ana tusiga kirgan ekan.

Maktabning eng a'lochi o'quvchilari davlat bayrog'ini baland ko'tarishdi. Xitoy davlat madhiyasi yangradi.

Biz kuzatgan sinflararo sport musobaqalarida do'stlik g'alaba qildi. Shundan so'ng har bir sinf o'quvchilari o'z sinfiga yo'l oldilar. Maydonda esa maktabning yuqori sinf o'quvchilarigina qoldi. Ular bilan maktab direktori alohida suhbatlashdi.

Bizga tarjimonlik qilgan tajribali muallima Gulfiya Tursun qizidan «Ular nima haqda suhbatlashishyapti?», – deb

Sport musobaqalari, bellashuv va viktorinalarda faolmiz



Xalkimizda ajoyib gap bor. Yurgan – daryo. Bu gapni takror va takror aytisak-da dilga yoqaveradi.

Hamrohlaringiz bilan Xargos shahridan ikki qavatli aftobusga chiqayotganimizda yong'ir xitoylik birodarlarimizning samimiy tabassumlaridan ko'nglimiz yorishib ketdi. Yo'l-yo'lakay zahmatkash yo'lquruvchilar mehnatiga tahsinlar aytdik. Ularning mo'jizaviy ulkan Tyan-shan tog'larini yorib, yangi yo'l barpo etayotganliklariga guvoh bo'ldik. Tez kunlarda sportchilarimiz bu yo'llardan O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarib «Pekin – 2008» olimpiadasi sari yo'l olishadi.

so'raganimizda, u kishi «Direktor yuqori sinf o'quvchilariga alohida e'tibor beradi. Suhbatlar uyushtiradi, ularning fikr-mulohazalari bilan qiziqadi», – deya javob qildi.



Olimpiadada biz mezbonmiz

faoliyat ko'rsatadi. O'qish besh kunlik. Har juma – ozodalik kuni, deb e'lon qilingan.

Gulfiya boshchiligida sinf xonalarga kirdik. Har bir sinfda maktab radiosi va oynayi jahon o'rnatilgan ekan. Shu payt tanaffus bo'lib, maktab radiosida Vatan, do'stlik, burch haqida so'z yuritildi. Vatanga sodiqlik muqaddas burch ekanligi ta'kidlandi.

Xayolimdan mana shu muqaddas burchga sodiqlik butun dunyo farzandlariga nasib etsin, degan o'y kechdi.



Beijing 2008

## IKKINCHI OFTOB



– Men O'zbekistonga tez-tez borib turaman. Har gal borganimda u yerdagi bunyodkorlik, obodonchilik ishlaridan ko'nglim yayrab ketadi, – deydi 72 yoshli onaxon, birinchi darajali dublyaj rejisseri Shaxzoda Muqit. – U yerdagi yangiliklar, yoshlarga berilayotgan e'tibor, imkoniyatu imtiyozlardan xabardorman. Bunday o'lkaning farzandlari, albatta, yurtiga munosib bo'lishi kerak.


Ko'nglimiz yaqinligi bois faoliyatim davomida ko'plab o'zbek kinofilmlarini dublyaj qilganman.

Inson ko'nglida shunday bir ulug', takrorlanmas tuyg'u borki, u bizni hamisha yaxshilikka, yorug'likka yetaklaydi. Bu dilimizdagi MEHRdir. Men doimo ana shu mehmi ardoqlab, avaylab yuraman. Shuning uchun MEHRni insoniyatning ikkinchi oftobi, degim keladi.

Feruza SOYIBJON qizi

*Sobir bobongiz Sizlar uchun she'r yozish bilan birga ajoyib kulgili rasmlar chizishga ham usta.*

*Yaqinda u kishi tahririyatimizga bir dasta she'r va rasmlar olib keldilar. Ulardan ba'zilarini e'tiboringizga havola etyapmiz.*



— Yozgan she'rlarimni shogirdlarimga o'qib berish menga zavq bag'ishlaydi, — deydi Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 59-maktab o'qituvchisi Sayyora KAZAKOVA.

Nonvoyning o'smir o'g'li,  
Ulg'aydi nonvoxonada.  
Otasiga qarashardi,  
Har kun uning yonida.

Kunlar kelib bo'ydor yigit,  
Ketdi uzoq safarga.  
Topolmasdan yoqimli hid,  
Uchradi bir xatarga.

Boshi og'rib yotib qoldi,  
Qo'l-oyoqda yo'q majol.  
Yashashidan zavq yo'qoldi —  
Dardin bilmay barcha lol.

Muolaja qilishar-u,  
Na'fbermas biron dori...  
Tana sog'lom, dardi yo'g'-u,  
Tang ahvolda madori.

**NON  
HIDI**  
(Rivoyat)

Qancha tabib boshi qotgan,  
Topolmas dardning sirin.  
Bu ahvoldan barcha hayron,  
Dard kuchayar kun sayin.

Ota-ona bag'rida tinch,  
Jon bermoqqa qildi ahd.  
Og'ushiga chorlar sog'inch —  
Maqsadga yetmoqdir — baxt!

Dasturxonga qo'yar ekan  
Ona issiq tandir non,  
Hididan bahra olib,  
Qalbi bo'ldi charog'on.

Qayta-qayta hidlar edi,  
Bag'riga bosib nonni.  
Allaqanday kuch va quvvat,  
Qamrab borar jonini.


Shu ondayoq holsiz yigit,  
Shifo topib ketibdi,  
Ona kasbin egallab,  
Murodiga yetibdi.

*Sobir XOLBEKOV*  
Toshkent viloyati,  
Olmaliq shahri



**Mushuk:**

—Suzishingizga qoyilmam! Sakrashni ham bilasizlarmi?



Surxondaryolik tengdoshingiz Maftuna BOTIROVA juda ajoyib rasmlar chizadi. Unga tasviriy san'at sirlarini mehribon dadajonisi Muhammadjon aka BOTIROV o'rgatib kelmoqda.

**YUGURGANNIKI EMAS...**

(Voqeiy hikoya)

Bu voqeani dadam aytib bergan edilar. Beshtosh soyining tepasida kaklik ovlab yurishgan ekan. Archaning tagida dam olib o'tirganlarida yaqin atrofda kaklik sayrab qolibdi.

— Qaq-qaq, qaqida!..

O'rinlaridan asta turib, ovoz kelgan tomonga kelibdilar. Qizil do'lana butasi tagiga emaklab borib qarasarlar, 20-30 metrlar naridagi xarsang tosh ustida bir nar kaklik zo'r berib sayrayotgan emish.

— Qaq'ida-qaq'ida, qaq'ida-qaq'ida, qaq'ida-qaq'ida...

Bu sayroqi qushni to'r bilan tutsa yaxshi bo'ladi. Essiz, to'r yo'q ekan. Qolaversa, bunday paytda to'r bilan ov qilib bo'lmaydi. Shu boisdan, dadam o'q uzibdilar. Kaklik dumalab tosh tagiga tushibdi.

Usta merganligidan mamnun dadam miltig'ini do'lana tagida qoldirib, o'ljasi tomon borayotgan ekan, bir payt tosh orqasidan sap-sariq tulki chiqibdi-yu, kaklikni olib qochibdi. Eng alam qiladigan joyi, ayyor tulki nariroqqa borib to'xtabdi-da, dadamga xuddi masxara qilganday g'alati bir qarash qilibdi.

— Uni tushundim, — deyдилar dadam. — Tulki menga «yugurganniki emas, buyurganniki» — deganday qarab turardi. Mening esa: «Osh bo'lsin, oshna» — deyishdan boshqa ilojim qolmagandi.

*A.RAHIMBERDIYEV*

**KULIB TURGAN YAXSHI**

Xandonpistadan so'rashdi:

— Nega og'zing qulog'ingda?

— Chunki kulib turgan yaxshi-da!..

Shuning uchun ham uni hech kim qo'lidan qo'ymaydi.

\*\*\*

Saqich qurtga tepadan qaradi:

— Seni ham sotib olishadi-ya!

Qurt iztehzoz bilan dedi:

— Ha, lekin sening shirang tugagach, uloqtirishadi.

\*\*\*

Sun'iy gul tabiiy gulga zorlandi:

— Nega sening umring qisqa bo'lsa-da insonlar ardoqlashadi-yu, men bir umr yashnab tursam ham kam e'tibor berishadi?

Tabiiy gul:

— Chunki inson tabiiy go'zalikka intiladi. Hozir sun'iy chiroy ko'payib ketganligi uchun ham mening qadrim yanada oshdi.

\*\*\*

G'ijim:

— Nega meni hech ko'ra olmaysan?

Dazmol:

— Egrilikni ko'rsam, umuman chidab turolmayman, zumda lovullab ketaman.

*Dilobar MUSAJONOVA*



BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

**Muassislar:**  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:  
Elyor ESHCHONOV  
Navbatchi:  
Sayyora JO'RAYEVA

Gazeta  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Sobirjon SHARIPOV,  
Ergashvov SARIQOV.

**Manzillimiz:**  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks: (99871) 244-38-10

**Rassomlar:**  
Nodira MIRZAYEVA,  
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Adadi - 53103  
Buyurtma N: J 5227